

DARS VAQTIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARNING O'QISH MAHORATLARINI SHAKLLANTIRISH.

Uzaqbayeva Surayyo,

Qoraqalpoq davlat universiteti,

Amaliy psixologiya yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Rezyume: Ushbu maqola boshlang'ich sinf samaradorligi haqida o'quvchilarning bo'sh vaqtlarida, ularning ilmiy ko'nikmalarini oshirish, shuningdek to'garaklar, qo'shimcha darslar va turli ko'ngilochar o'yinlar orqali samaradorligini oshirish bo'yicha fikrlar keltirilgan.

Tayanch so'zlar: Interfaol usul, texnologik usul, struktura, pedagog, integratsiya.

Bugungi kunda ta'lim tizimimizda amalga oshirilyotgan ishlarning samaradorligini oshirishda amaliyotga tatbiq etilayotgan texnologik uslublarning ahamiyati har qachongidan ham kattadir. Bundan tashqari maktab bilim salohiyatining yanada oshirilishida darslardan bo'sh vaqtlarda qo'shimcha to'garak va takrorlash darslarining olib borilishida pedagog bilim salohiyatining o'ziga xos ekanligi ahamiyat kasb etish bilan birgalikda, tashkil etilayotgan to'garakning natijalari tahlil etilyotganda amalda qo'llanilyotgan ushbu ishlarning samaradorligi namoyon bo'ladi.

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, boshlang'ich sinf o'quvchilari to'rt yillik o'quv dasturining mukammal tarzda o'zlashtirilishida ularga birlashtirilgan sinf rahbarining ham ularni tarbiya etayotgan ota - onalarining ham e'tibor bilan yodlashlarini talab qiladi. Bunda boshlang'ich sinf o'quvchilari maktabda dars faoliyatining namunali tashkil etilgan ekanligi bilan uy sharoitida o'quv malaka ko'nikmalarining yetarli darajada tashkil etilmasligi natijasida o'zlashtirilishning past bo'lishi, savodsizlikning yuzaga kelishiga zamin yaratadi.

Shu boisdan ham maktab va oila hamkorligini oshirishda pedagoglarning xizmatlari ko'p hisoblanib, ota - onalarni maktabning boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlashishga, ularning ta'lim tizimida olib borilyotgan yangiliklardan boxabar qilib turishlari bu har ikkala tomonning sezilarli darajada oshirilishiga erishiladi. Bugungi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilarining darsda faolligini oshirish texnikasining yanada oshirilishi, ijodiy faoliyatining namoyon etilishida sharoitlar yaratish, bu borada mustaqil ishlar va erkin fikrlashga zamin yaratish masalasining tatbiq etilishi quyidagi tamoyillarni taqozo etadi. Ular quyidagicha:

- Darsdan tashqari to'garak mashg'ulotlarini tashkillashtirish;
- Darsdan tashqari metod va uslublarning an'anaviy qo'llanishi;
- Axborot va kommunikatsiyalarni erkin qo'llay olish;

- O‘quvchilar istagiga muvofiq mavzularning to‘garak mavzulari sifatida qo‘llash;
- O‘quvchilarning pedagogik - psixologik mashg‘ulotlarni ham tashkil etish;
- To‘garak mashg‘ulotlari davomiyligida o‘quvchilarining erkin so‘zlashlarining ta‘minlanishi;
- Dars texnikasiga nomunosib bo‘lgan adabiyotlarning ham talab doirasida darsdan tashqari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ko‘nikmalarini oshirishda qo‘llash va boshqalar. Darsliklarning yangi avlodi, avvalo, unda berilgan o‘quv topshiriqlari o‘quvchini faol ishlashga, shuningdek, mustaqil va ijodiy fikr yuritishga o‘rgatadigan shaklda tuzilmog‘i zarur. Hozirda amaldagi boshlang‘ich sinf ona tili darsliklari zamon talablariga javob beradimi degan savolga javob izlash maqsadida mazkur darsliklarni tahlil qilamiz. Boshlang‘ich sinf ona tili darsliklarini tahlil qilishda prof. A.G‘ulomov va H.Ne‘matovlar tomonidan ishlab chiqilgan tasnifga tayanamiz. Ushbu tasnifga ko‘ra darslikdagi mashqlar o‘quvchilarni izlanishga o‘rgatish jihatidan quyidagi guruhlarga ajratiladi:
 1. Qayta xotirlash tipidagi mashqlar.
 2. Qisman izlanuvchanlik tipidagi mashqlar.
 3. Ijodiy mashqlar [1].

Haqiqatdan ham, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilim salohiyatini oshirish va ta‘lim tizimidagi kommunikativlik xususiyatlarini oshirishda turli amaliy –dasturiy texnik – texnologik usullardan foydalanishda qayta xotirlash tipidagi mashqlarning ahamiyati sezilarli darajada kattadir. Misol uchun pedagog o‘ziga ajratilgan dars davomiyligi 45 daqiqa etib belgilangan bo‘lsa, bu vaqt oralig‘ida o‘qituvchining butun boshli bir sinf o‘quvchilari bilan ishlashish, ular bilan birgalikda yangi mavzuning muhokamasi, o‘tgan darsning vazifa va topshiriqlari bilan ishlashish, dars mashg‘ulotlarining mashqlar to‘plami bilan tanishish va ularning amaliy mashg‘ulotlaring bajarilish tartibi uchun belgilangan 45 daqiqalik vaqt mo‘ljallangan bo‘lib, pedagog dars vaqtida ulgurmagan metodlari va usullarining qo‘llanish doirasini boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining to‘garak mashg‘ulotlarida namunaviy tarzda qo‘llay olishga erishishi mumkin ekanligi bilan xarakterlanadi. Ta‘lim berishda boshlang‘ich sinf bilan ishlashishning o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berishda ma‘lum bir terminlarning izohi bilan tanishish ham muhimdir. “O‘qitish - o‘qituvchi va o‘quvchilarining birgalikdagi faoliyati bo‘lib bu jarayonida bolalarning ma‘lumot olishi, o‘quv ko‘nikma va malakasini egallashi, rivojlanib borishi nazarda tutiladi. Ma‘lumot - bunda nafaqat o‘qitish, balki mustaqil ta‘lim olish, ommaviy axborotlar ta‘sirida bo‘lishi bilan birgalikda insonning ilmiy dunyoqarashni egallashi, ilmiy tizimni shakllantirish nazarda tutiladi. Inson kamolaoti - bu keng ma‘noda insonning ichki va tashqi omillar ta‘sirida shakllanish jarayonidir. Bu jarayonida tarbiyaning muhim ahamiyat kasb etishi tushuniladi. Insonning shakllanishi - bu insonning hayot

yo‘li davomida rivojlanishining o‘ziga xos shakli bo‘lib, maxsus olib boriladigan tarbiyaviy ta’sir natijasi hisoblanadi” [2].

Bugungi kunda pedagogik ilmiy - tadqiqot asoslarining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri bo‘lmish pedagogik tadqiqot ishlari bilan shug‘ullanuvchibir qator olimlar quyidagi fikr - mulohazalarga asoslanib o‘zlarining ilmiy salohiyatlarini namoyon etishda maktab jumladan: Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining shakllanishi, bilim olishi, o‘zlashtirish xususiyatidan kelib chiqib ularga qo‘shimcha tarzda darsdan tashqari ya’ni bo‘sh vaqtlarida mashq va topshiriqlar ko‘nikmalarni shakllantirish, kelgusi darslarning tahlili va turli sohalarida ular bilan ishlashni taqozo etmoqda. Bugungi kunda maktab + oila sharoitida amalga oshirilayotgan ta’lim tizimining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri shundan iboratki - bunda har ikki tomonlama kelishuv va murosas orqali farzandining yaxshi bilim olishi bilim va ko‘nikmalarga ega bolishiga erishiladi. Buning natijasi o‘laroq to‘garak va qo‘shimcha darslarning tashkil etilishida faol qatnashgan o‘quvchi, oqituvchi va talaba do‘stlari bilan birgalikda yaxshi murosaga kirishishi, ular bilan tanishuv va kelishib keta olish qobiliyatining shakllanishi va qolaversa kelgusida darslarga faollik bilan qatnashishda tayyorgarlikning shakllanishiga erishishi tabiiy albatta. “Haqiqatdan ham darsdan bo‘sh vaqtlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning turli ko‘ngilochar o‘yinlar ya’ni metodlar va uslublar natijasida ularning bilim olishi va shakllanish bosqichlarini yana bir bora oshirish bu pedagoglarning eng oliy vazifalaridan biridir” [4].

Shu boisdan ham boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining darsdan tashqari ish mashg‘ulotlari tashkil etish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Darsdan bo‘sh vaqtlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning o‘quv ko‘nikmalarini shakllantirishning ahamiyati shundan iboratki – bunda o‘quvchi va o‘qituvchi ortasida munozaraning shakllanishi murosaning yuzaga kelishi oqibatida darsdan tashqari muhim munosabatlarning shakllanishiga ham urg‘u beriladi. “Yangi turli - xil sayohatlar, uchrashuvlar, badiiy kechalar, to‘garaklar albatta ushbu vazifani o‘taydi”. O‘quvchilarning istagiga muvofiq to‘garak mavzulari darsdan bo‘sh vaqtlarida xohish va irodalariga asosan tanlanadi. Axborot va kommunikatsiyalar beriladi. Bunda zamonaviy ilmiy dunyoda amalga oshirilayotgan axborot va ko‘nikmalarining texnik ilmiy bazasi shakllangan holatda o‘quvchilarga yetkaziladi. Mavzuning ham erkin tarzda tanlanishi. Tugarak o‘quvchilarning ya’ni darsdan bo‘sh vaqtlarida to‘garakka qatnashuvchi o‘quvchilarning xohish va irodasiga muvofiq tanlanadi. “Bu borada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining darsda faolliginini oshirish, ularning darslaridan bo‘sh vaqtlarda ham ular bilan real va malakali tarzda o‘qituvchi va pedagoglarning shug‘ullanib kelayotganligini yetarlicha namoyon bo‘lishi bilan birgalikda o‘z ifodasini topishi ham ahamiyatlidir”[5].

Xulosa qilib shuni aytish mumkinmi, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bo‘sh vaqtlarida mazmunli tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlarini keng tahlil etish,

qolaversa boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilim salohiyatini oshirishda dasturiy manba bo‘lib xizmati qiluvchi to‘garaklar, qo‘shimcha darslar va ochiq darslar, badiiy kechalar ham ularning ta‘lim jarayoniga sezilarli ta‘sir qilib, bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishda o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. Xayrullayeva D.N., “Boshlang‘ich sinf ona tili darsliklaridagi ijodiy mashq va topshiriqlar tizimi” BDU talabasi.
2. Mavlyonova R, Raxmankulova N., “Boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasi, Innovatsoya va Integratsiya”. “Voriz – nashryot” Toshkent -2013
3. Atayeva N, Rasulova F, Salayeva M, Hasanov S., “Umumiy pedagogika”. Toshkent – 2012.
4. Shodmonova Sh.S, Abdurahimova D.A “Boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi” Fan dasturi. Toshkent - 2018.
5. Xoliqov A. “Pedagogik mahurat”. “Tafakkur bo‘stoni” Toshkent - 2011.